



TA'LIMDA BOSHQARISH JARAYONIDA AXBOROT TIZIMLARINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Seytniyazov Davronbek Bayramovich

assistent

Atamuratova Shaxsanem Turdimuratovna

talaba

Maysanova Aynur Kurmangaziyevna

Talaba Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yangi jahon axborot ta'lif muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lif tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lif jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoque.


Axborot texnologiyalari — bu turli texnik qurilmalar va dasturiy vositalar bilan axborotga ishlov berish usullari bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lif sohasiga kirib kelishi ta'lif usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lif tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. Shulardan kelib chiqqan holda mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi sifatida ta'lif jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash tanlab olindi.

Hozirga vaqtga kelib jamiyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Har xil turdag'i axborotlarning tobora ko'payib borishi bizni uni qayta ishlashning yangi, ilg'or usullari va vositalarini joriy etishga majbur qilmoqda va zamonaviy hayot sharoitlarida axborotni saqlash, uzatish va xavfsizligini ta'minlash yo'llariga tobora ko'proq talablarni kuchaytirmoqda. Ta'lif inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ayni paytda ushbu sohada yangi bilimlar manbai va ushbu bilimlarni qo'llash sohasi hisoblanadi. Shuning uchun ham axborot texnologiyalarning sohalarda qo'llanilish qamrovini kengaytirish, uning imkoniyatlarini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib hisoblanadi.

Axborot - bu ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan yangilikga ega bo'ladi. Axborot texnologiyalari - axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishslash usul va vositalari majmuidir.

Axborotning vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar muvjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

— Ichki omil - bunga axborotlarning paydo bo'lishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va shu kabilar misol bo'ladi;





– Tashki omilga - axborot texnologiyasining texnika qurilma vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirilishini bildiradi.

Axborotning o'z vaqtida kelishi va o'z vaqtida bajaruvchilarga yuborilishi, ya'ni tezkorligi ham juda muhim ahamiyatga ega. U boshqaruv jarayonining, binobarin, ishlab chiqarishning uzlusiz borishiga yordam beradi, shuningdek, dastlabki axborotni boshqarish turli maqsadlar uchun oson o'zgartirish, undan boshqaruvning barcha bo'g'inlarida foydalanish mumkinligi, axborotning uzil-kesil ishlanishi, undan qo'shimcha ishlov bermasdan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Axborotlarni turli vostilar orqali qabul qilish, qayta ishslash hamda uzatish mumkin. Barcha turdag'i vositalar jamlanmasi ham o'z o'rnila yangi texnologiyani tashkil etadi.

Axborot texnologiyasi o'zi uchun asosiy muhit bo'lgan axborot tizimlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki axborot texnologiyasi axborot tizimlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar ustida bajariladigan turli hil murakkablikdagi operatsiyalar, amallar va algoritmlarni bajarishdan iborat bo'lgan tartiblashtirilgan jarayon bo'lib hisoblanadi.


Axborot tizimiga kiradigan ma'lumot sifatida axborotni shakllantiruvchi axborot manbalari va ma'lumotlarni yig'ish tizimi ko'rib chiqiladi. Chiqadigan axborot sifatida esa qarorlarni shakllantirish va qabul qilish, ya'ni axborotdan maqsadli ravishda foydalanish tizimi tahlil etiladi. Demak, axborot tizimi axborotni boshlang'ich yig'ish va undan ikkilamchi foydalanish tizimi bilan o'zaro bog'liq.

Axborot tizimi boshqarish tizimining asosi sanaladi. Biroq butun boshqarish tizimi bu bilan tugamaydi. Qarorlar qabul qilish ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatuvchi boshqarish tizimining boshqa tomonini tashkil etadi.

Axborot tizimi tushunchasi uzlusiz axborot tushunchasi va uning moddiy namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Bunda axborot tizimining ikki tomoni, ya'ni texnologik va mazmuniy jihatini farqlash lozim. Axborot tizimiga texnologik yondashuv uni axborot protseduralarini (ma'lumot yig'ish, ro'yxatga olish, uzatish, saqlash, jamlash, qayta ishslash va hokazolarni) kompleks amalga oshirish bilan bog'liq boshqaruv jarayonlarining biri sifatida ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Protseduralarni bajarish tashkilotning asosiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida ro'y beradi. Boshqarishni avtomatashtirish birinchi galda axborot protseduralarini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Mektep haqqında	Tapsirmani kiritish	Tapsirmalar dizimi	Tapsirmalardagi tekserish	Tapsirmani qabilaw	Oquvshilar reytingi
NR	Oquvshi	Status			
1	Allayarov I.B.				
2	Jamshev A.T.				
3	Atamurodov A.Sh.				
4	Muradov H.B.				
5	Allayarov I.B.				
6	Abdullahayev T.D.				
7	Oriesheva A.B.				

1-rasm. O'quvchilar reytingi sahfasi





Tahlil qilingan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqot ishida quyidagicha interfeysga ega bo'lgan axborot tizimini ishlab chiqildi (1-rasm). Quyidagi sahifada axborot tizimining o'quvchilar reytingi sahifasi keltirilgan. Mazkur axborot tizimi ta'lim sohasida o'quvchilar bilimini baholash uchun ishlatiladi. Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari juda ham keng bo'lib ularning qo'llanish sohalari kundan kunga ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Орлов Л.В. «Web-сайт без секретов». 2-е изд. М.: ЗАО “Новый издательский дом”, 2004г. 512 стр.
2. Кришнумурти Б., Рексфорд Дж. «Web-протоколы. теория и практика».-М.: ЗАО “Издательство БИНОМ”, 2002г. 592 стр
3. Кузнецов Максим, Симдянов Игорь. «MySQL на примерах». — Спб.: «БХВ-Петербург», 2008. — С. 952

